O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TA’LIM VA ILM-FAN VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI




# “O‘ZBEK TILINING GLOBAL MAQOMI VA NUFUZINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI”

## MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI







**2026-yil**
**16-oktabr**

# NUTQIY IJOD HAQIDAGI NAZARIY QARASHLAR TALQINI

# INTERPRETATIONS OF THEORETICAL VIEWS ON SPEECH CREATIVITY

DOI:10.52773/tsuull.conf.2026.10.16/ZFJI3785

***Mirnosirova Dilbar Nodirbek qizi***
*Alisher Navoiy nomidagi*
*Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti*
*universiteti doktoranti*
mirnosirovadilbar@gmail.com
*ORCID: 0009-0007-3371-7541*

**Annotatsiya.** *Maqolada nutqiy ijod tushunchasining jahondagi tadqiqotlarda shakllangan turli talqinlari qiyosiy-tahliliy jihatdan yoritilgan. Xususan, uning lingvistik, psixologik va pedagogik yondashuvlardagi mazmuni, nutqiy ijodkorlik, verbal kreativlik hamda ijodiy nutqiy faoliyat bilan munosabati tahlil qilingan. Mavjud tadqiqotlarda nutqiy ijodning originallik, ravonlik, moslashuvchanlik, yangi g‘oya va nutqiy mahsulot yaratish kabi belgilari turlicha talqin qilinishi aniqlangan. Mazkur yondashuvlar umumlashtirilib, nutqiy ijodning mohiyati, chegaralari va asosiy komponentlarini belgilashga doir ilmiy qarashlarga muayyan darajada munosabat bildirilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *nutqiy ijod, nutqiy ijodkorlik, og‘zaki ijodkorlik, verbal ijodkorlik, kommunikativ ijodkorlik, kommunikativ kreativlik, bolalar nutqi, ontolingvistika, pedagogika, psixologiya.*

**Annotation.** *This article provides a comparative and analytical examination of various interpretations of the concept of speech creativity developed in scholarly research worldwide. In particular, it analyzes the conceptualization of speech creativity within linguistic, psychological, and pedagogical approaches, as well as its relationship with speech creativity, verbal creativity, and creative speech activity. The analysis demonstrates that existing studies interpret such characteristics of speech creativity as originality, fluency, flexibility, and the generation of new ideas and speech products in different ways. These approaches are synthesized, and a critical perspective is offered on scholarly views concerning the essence, boundaries, and principal components of speech creativity.*

**Keywords:** *speech creativity, speech creative ability, oral creativity, verbal creativity, communicative creativity, communicative creativeness, child speech, ontolinguistics, pedagogy, psychology.*

Ijodkorlik psixika, ong va tasavvur bog‘liqligi asosida yuzaga keluvchi hamda shaxsning intellektual rivojlanish jarayonini ko‘rsatuvchi asosiy xususiyatlardan biridir. U turli ko‘rinishlarda, jumladan, badiiy ijod, rassomchilik, amaliy san’at, musiqa, raqs shaklida namoyon bo‘ladi. Yuqoridagi qatorga nutqiy ijod yoki so‘z ijodkorligini ham alohida tur sifatida ilova qilish mumkin. Boisi, nutqiy ijod ijodkorlikning boshqa turlaridan farqli ravishda til birliklarining nome’yoriy, nouzual holatda qo‘llanishi asosida yuzaga keladi.

Jahon tilshunosligida bugungi kunga qadar yaratilgan qator tadqiqotlarda nutqiy ijod va lingvokreativlik birliklari yondosh termin sifatida qo‘llangani kuzatiladi. Bu holat har ikkala termin mohiyatan bir mazmunga ega degan tasavvur uyg‘otishi ham mumkin. Biroq mavzuga oid muayyan tadqiqotlar tahlili ularning muayyan farqlanishlarga egaligini ko‘rsatadi.

Nutqiy ijod termini rus tilidagi tadqiqotlarda turli shakllarda uchraydi. Ular orasida *og‘zaki ijodkorlik (словесного творчества)*, *nutqiy ijodkorlik (речевого творчество)* kabi qo‘llanishlar faol sanaladi [Тимофеева, 2020]. Psixologiyaga oid ishlarda esa *kommunikativ ijodkorlik (коммуникативного творчество)* shakli ham uchraydi [Мартышкина, 2006]. Ingliz tilidagi adabiyotlarda *nutqiy ijod (speech creativity)* ifodasi cheklangan holda metodikaga oid tadqiqotlarda kuzatilishi, ijodiylik asosida yangi ifoda yaratishga nisbatan ko‘proq *lingvokreativlik (linguistic creativity)*, *verbal ijodkorlik (verbal creativity)* terminlari faol qo‘llangani kuzatildi [Zimakova, Kramarenko, Kovalevska, Pasichnichenko, Tupytsya, 2025].

Psixologiyaga oid tadqiqotlar tahlili kommunikativ ijodkorlikni nutqiy ijoddan farqli jarayon ekanligini ko‘rsatadi. Xususan, N.V.Martishkina kommunikativ ijodkorlikni lingvistik kategoriya sifatida emas, balki pedagogik psixologiya doirasida, maktabgacha yoshdagi bolaning muloqot faoliyatini ta’minlovchi tizimli shaxsiy-psixologik xususiyat sifatida konseptuallashtirgan [Мартышкина, 2006]. Olima tadqiqotida kommunikativ ijodkorlikni keng qamrovli jarayon sifatida tavsiflab, uning aksariyat holatlarda bola tomonidan murakkab vaziyatlarni hal qilish, yangi o‘yin faoliyatini tashkil etish, muayyan predmetdan noodatiy tarzda foydalanish, muloqotda kutilmagan reaksiya berish, yangi vaziyatlarga moslashishda yuzaga kelishini ta’kidlaydi.

Mavjud tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, nutqiy ijod termini faqat bolaga xos bo‘lgan lingvistik qobiliyatni ifodalaydi. Lingvokreativlik esa kattalar nutqida ham uchrovchi xususiyat sifatida tavsiflanadi. N.N.Kalandarova mazkur ikki tushunchani farqlar ekan, ijodkorlikka nisbatan yangi, ilgari mavjud bo‘lmagan mahsulotning paydo bo‘lishiga olib keladigan jarayon, kreativlikka esa yaratuvchanlik qobiliyati, ijodiy shaxs, jarayon va mahsulotga xos xususiyat bo‘lib, u madaniyat olami, shaxs tajribasi yoki ijtimoiy ahamiyatning o‘zgarishida namoyon bo‘ladi, deb ta’rif beradi [Каландарова, 2004: 7]. Kreativlik termini J.Gilford tomonidan fanga kiritilganini ta’kidlaydi [Каландарова, 2004: 7]. Bundan ma’lum bo‘lishicha, ijodkorlik jarayon, kreativlik qobiliyat sifatida baholanmoqda. Bolalar nutqiy ijodining rivojlanishini o‘rgangan olima N.V.Timofeyeva ham ushbu terminni jarayon sifatida baholagan. Uning fikriga ko‘ra, nutqiy ijod badiiy asarlar ta’sirida bolalarning o‘zaro bog‘langan ifodalarni yaratishga qaratilgan mustaqil faoliyat turidir. Bunda bola turli ekspressiv vositalardan foydalangan holda axborotdan olgan taassurotini ifodalaydi. Muallif verbal kreativlikni so‘z ijodkorligi, nutqiy ijodkorlik qobiliyatlarining namoyon bo‘lishi, an’anaviy dunyo tasvirlarining tubdan yangi ko‘rinishini qabul qilish va yaratishga tayyorlik bilan tavsiflagan [Тимофеева, 2020: 7]. Asta-sekin, ba’zan esa o‘z-o‘zidan, bola atrofdagi olamni idrok etish jarayonida olgan taassurot va kuzatishlarini badiiy shaklga, so‘z ijodkorligi, she’r tuzish, voqea yoki ertakni izchil bayon qilish shakliga ko‘chiradi. Bolani nutqiy ijodga undash unga so‘zlar bilan o‘ynash, atrofdagi olam manzaralariga yanada diqqat bilan nazar tashlash, jarangdor nutqning o‘ziga xos birikmalarini topish hamda adabiy asarlarning badiiy obrazlarini o‘zlashtirish imkonini beradi [Тимофеева, 2020: 5].

Keyingi tadqiqotlarda nutqiy ijod faqatgina yangi lingvistik birlik hosil qilishga qaratilgan faoliyat emas, balki keng ma’noda bola tomonidan ijodiy tafakkur asosida yaratilgan syujet, ertak, hikoya hamda so‘zga nisbatan qo‘llangan. A.G.Absalyamovaning quyidagi xulosalari fikrimizning yorqin dalilidir: “Maktabgacha yoshdagi bolaning nutq ijodiyoti – bu adabiy tasvirni (obyektni) idrok etish, uning xususiyatlarini (sifatlarini) ichki va tashqi talqin qilish va yangi og‘zaki tasvirni (obyekt, syujet) yaratish bilan bog‘liq nutq faoliyatidir” [Абсалямова, 2016]. Ushbu faoliyat kognitiv, refleksiv va produktiv komponentlardan tashkil topadi. Olima nutqiy ijod turlarini qayd etar ekan, so‘z ijod (словотворчество)ni mazkur faoliyatning dastlabki ko‘rinishi sifatida ko‘rsatadi [Абсалямова, 2016].

A.A.Rubanova hamda T.E.Fedoseyeva bolalar nutqiy ijodi turlariga to‘xtalib, ijodiy qayta hikoya qilish, ertaklar to‘qish va poetik ijodkorlikni keng tarqalgan turlar sifatida belgilaydi [Рубанова, Федосеева, 2022].

A.Y.Rosada, A.L.Kopchinskaya, N.V.Ivanova, Y.N.Lopanskaya esa og‘zaki ijodkorlikni bola ijodiy faoliyatining eng murakkab turi sifatida ko‘rsatib, kuzatuvlarda ijodkorlikning so‘z ijod, mustaqil ravishda she’r, hikoya, ertak yaratish, topishmoq va afsona to‘qish turidan keng foydalanilganini qayd etadilar [Росада, Копчинская, Иванова, Лопанская, 2020].

Bolalarga xos nutqiy ijodkorlikni faoliyat sifatida baholash O.G.Stovolosova qarashlarida ham ko‘zga tashlanadi. Olima mazkur faoliyatni bolaning yangi, noodatiy nutqiy namunalar yaratishga oid faoliyati deb tavsiflaydi [https://www.defectologiya.pro/zhurnal/razvitie_rechevogo_tvorchestva_u_detej_doshkolnogo_vozrasta/]. Shuningdek, u nutqiy ijodning katta maktabgacha yosh davriga xosligini qayd etadi. Demak, bundan nutqiy ijodkorlikning yaqqol namunasi maktabgacha yoshning so‘nggi davrida, ya’ni 6-7 yoshda kuzatilishi haqidagi xulosaga kelish mumkin. Nutqiy ijodning yuzaga kelish davri haqida gapirganda K.I.Chukovskiyning bu boradagi fikrlarini keltirish o‘rinlidir. Uning qayd etishicha, nutqiy ijod bolada grammatik tizimning rivojlangan davrida, ya’ni 3 yoshdan 5 yoshgacha yaqqol kuzatilishi mumkin [Тимофеева, 2020: 8].

G.Vatamanyuk nutqiy ijod bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarni psixologik, lingvistik, psixolingvistik aspektlarda amalga oshirilganini qayd etadi. U psixolingvistik nuqtayi nazardan nutqiy ijodni mantiq, grammatika va kompozitsiya qonuniyatlari asosida tashkil etilgan nutqiy faoliyat sifatida tavsiflaydi. Nutqiy ijodni muayyan mavzuga egaligi, muayyan kommunikativ funksiyalarni bajarishi, nisbiy mustaqillik va tugallanganlik xususiyatlariga ega bo‘lishi hamda ayrim tarkibiy qismlarga ajratilishi mumkinligi haqida ma’lumot beradi. A.Leontyev bunday tarkibiy qismlarga “turli muloqot sharoitlarida yo‘nalishni aniqlay olish, o‘z nutqini rejalashtirish, uni ifodalash uchun mazmun va til vositalarini tanlash, qayta aloqani ta’minlay olish ko‘nikmalarini” kiritadi. Aks holda, muloqot samarali bo‘lmaydi va kutilgan natijalarni bermaydi [Ватаманюк, 2021: 707].

Shuningdek, G.Vatamanyuk bolalar nutqiy ijodining asosiy qonuniyati sifatida ijodkorlikning faqat natijada emas, balki jarayon davomida ham aks etishi lozimligini ko‘rsatadi [Ватаманюк, 2021: 707]. Fikrimizcha, nutqiy ijodning jarayon sifatida baholanishi nazariy jihatdan asoslidir. Boisi, bunda faqat tayyor ijodiylik mahsuli emas, balki mazkur mahsulotning yuzaga kelishiga sabab

bo‘lgan ichki va tashqi omillar yaqqol ko‘zga tashlanadi. G.Vatamanyuk tomonidan berilgan ma’lumotga ko‘ra, T.Aliyeva, L.Voroshnina, V.Zaxarchenko, S.Lasunova, T.Postoyan, O.Ushakova tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ham nutqiy ijodkorlik katta maktabgacha yoshda muvaffaqiyatli amalga oshishi isbotlangan hamda bu jarayon bolaga berilgan ta’lim orqali yuzaga kelishi ta’kidlangan. Chunki bu davrda bolada nutqiy ijodkorlikning mazmuniga aylanishi mumkin bo‘lgan muayyan nutqiy va intellektual tajriba shakllangan bo‘ladi [Ватаманюк, 2021: 706]. Olimaning fikriga ko‘ra, nutqiy ijodkorlikni maktabgacha yosh kontekstida tadqiq etishda so‘z ijodkorligi va nutqiy ijodkorlik terminlari mohiyatini aniqlab olish muhimdir. So‘z ijodi adabiy ijodning dastlabki shakli sifatida bola tomonidan nutqiy ifodaning har qanday shaklida asar yaratishga yo‘naltirilgan, maxsus tashkil etilgan va motivatsiyaga asoslangan jarayon bo‘lib, u muayyan adabiy me’yorlarga javob beradi hamda nutq va tasavvurning yuqori darajada rivojlanganligi natijasi hisoblanadi. Biroq bunday me’yorga erishish faqat psixik jarayonlar (tafakkur, xotira, ijodiy tasavvur)ning muayyan shart-sharoitlarda rivojlanishi, nutqning fonetik, leksik, grammatik, bog‘lanishli, ifodaviy va obrazli tomonlari shakllanishi, bolaning hayotiy tajribasi, ta’lim muhiti hamda so‘z ijodini rivojlantirish uchun to‘g‘ri tanlangan vositalar mavjud bo‘lgandagina yuzaga kelishi mumkin [Ватаманюк, 2021: 708].

O.Ushakovaning fikriga ko‘ra esa, nutqiy ijod tushunchasi o‘zaro bog‘liq, biroq prinsipial jihatdan farqli bo‘lgan ikki sohaga – tildagi va nutqdagi ijodga taalluqlidir. Til ijodi bilan alohida shaxsning o‘zida til tizimining o‘zgarishiga olib keluvchi jarayonlar bog‘liq. Nutqdagi ijod esa og‘zaki, bog‘langan hikoyaviy matn yaratishni nazarda tutadi. O.Ushakova maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqiy ijodini san’at asarlari va atrofdagi hayotdan olingan taassurotlar ta’sirida yuzaga keladigan hamda og‘zaki ijod namunalarini, ya’ni hikoyalar, she’rlar va ertaklarni yaratishda namoyon bo‘ladigan bolalarning mahsuldor faoliyati sifatida talqin qiladi [Ватаманюк, 2021: 707].

Fors tadqiqotchisi S.M.Suzani bola til tizimini o‘zlashtirish jarayonida yangi so‘zlar, shakllar va qoidalarni mustaqil ravishda yaratishi sifatida tushuntiradi. U E.Clark yondashuviga tayangan holda mazkur jarayonning bola tomonidan leksik bo‘shliqni qoplash ehtiyoji vat il qoidalarini ijodiy qo‘llash tufayli maydonga kelishi kabi ikki asosiy jihatini qayd etadi [Suzani, 2024: 1116].

Bundan xulosa qilish mumkinki, nutqiy ijod faqat bir soha doirasida emas, balki fanlararo kompleks o‘rganilishi lozim bo‘lgan masalalardan biri faoliyat hisoblanadi. Chunki nutqiy ijodni yuzaga keltiruvchi ruhiy holat psixologiya

doirasida, uning qanday va qaysi til vositalari orqali ifodalanishi tilshunoslik doirasida hamda mazkur faoliyatni rivojlantirishga qaratilgan metodlar pedagogika doirasida o‘rganilsa, bola nutqiy ijodiyotining turli qirralari haqida yaxlit xulosaga kelish mumkin bo‘ladi.

## ADABIYOTLAR

**1.** Тимофеева Н.В. Развитие речевого творчества дошкольника. – Санкт-Петербург, 2020. – 124 с.

**2.** Мартышкина Н.В. Психологические особенности коммуникативного творчества и развития коммуникативной креативности дошкольников: автореф. дис. … канд. псих. наук. – Нижний Новгород, 2006. – 24 с.

**3.** Zimakova L., Kramarenko V., Kovalevska N., Pasichnichenko A., Tupytsya O. (2025). Formation of children’s speech creativity by means of modern art and game material. https://doi.org/10.18662/rrem/17.1/971

**4.** Каландарова Н.Н. Развитие речевого творчества учащихся эмоционально-ценностными средствами: автореф. дис. … канд. пед. наук. – Ижевск, 2004. – 24 с.

**5.** Абсалямова А.Г. Актуальные проблемы развития речевого творчества детей дошкольного возраста // Дошкольное воспитание: ежемесячный научно-методический журнал. – 2016. – № 9. – С. 46-52.

**6.** Рубанова А.А., Федосеева Т.Е. Особенности речевого творчества у детей старшего дошкольного возраста // Нижегородский психологический альманах. – 2022. – № 1; URL: psykaf417.esrae.ru/ru/35-343 (дата обращения: 10.04.2026).

**7.** Росада А.Ю., Копчинская А.Л., Иванова Н.В., Лопанская Е.Н. Формирование речевой активности старших дошкольников при использовании словесного творчества // Форум молодых ученых. 2020. №8 (48). URL: https://cyberleninka.ru/article/n/formirovanie-rechevoy-aktivnosti-starshih-doshkolnikov-pri-ispolzovanii-slovesnogo-tvorchestva (дата обращения: 10.04.2026).

**8.**https://www.defectologiya.pro/zhurnal/razvitie_rechevogo_tvorchestva_u_detej_doshkolnogo_vozrasta/

**9.** Ватаманюк Г. Лингводидактические основы развития речевого творчества детей дошкольного возраста. (2021). https://ibn.idsi.md/vizualizare_articol/122396

**10.** Suzani M.S. Creativity in children’s speech development: a case study of Persian speaking children. (2024). https://doi.org/10.5281/zenodo.14781542

## MUNDARIJA


| | | |
|---|---|---|
| **KIRISH SO‘ZI** | | |
| **Sirojiddinov Sh.S.** | O‘zbek tilining xalqaro nufuzini oshirish zarurati | **6** |
| **I. O‘ZBEK TILINING JAHON TILLARI TIZIMIDAGI O‘RNI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI** | | |
| **Xolmanova Z.** | O‘zbek tilining jahon tillari tizimidagi mavqeyini belgilashda lingvodidaktikaning o‘rni | **9** |
| **Abdushukurov B.** | Alisher Navoiy asarlaridagi qadimgi turkiy fe’llar semantikasi | **16** |
| **Xudoyberdiyev J.** | Mahmud Koshg‘ariy – singarmonizmning birinchi nazariyotchisi va ovrupolik olimlarning singarmonizm haqidagi xato qarashlari | **30** |
| **Abdurahmanova M.** | Alisher Navoiy merosi psixolingvistik talqinda | **45** |
| **Xolmurodova M.** | “Nasoyim ul-muhabbat” asaridagi tabobatga doir ayrim arabcha so‘zlar | **51** |
| **O‘razova I.** | Ot frazemalarning grammatik funksiyasi (Alisher Navoiy “Xamsa”sidagi frazemalar misolida) | **56** |
| **Maxkamova D.** | O‘zbek tili axborot-kommunikatsiya texnologiyalari | **60** |

| | | |
|---|---|---|
| | terminologiyasi taraqqiyoti va tadqiqi | |
| **Oripova M.** | Sinestezik metaforalarda sezgilar interperatsiyasi | **66** |
| **Muratova N.** | Tilak va tabrik nutqiy aktlarida kommunikativ taktikaning tanlanish xususiyatlari | **72** |
| **Abdullayeva G.** | Folklor diskursida o‘xshatishlarning semantik-struktur va kognitiv tahlili | **78** |
| **Xayrullayeva R.** | Kichraytirish-erkalash shakllarining pragmatik ifodalanishi | **86** |
| **Jumaniyozova Ch.** | Sifat so‘z turkumida obyektiv va subyektiv belgilarning ifodalanishi | **90** |
| **Abduvaliyeva K.** | “Shajarayi turk” asaridagi ba’zi urug‘ nomlarining etnotoponim sifatidagi tahlili | **95** |
| **Mullaboyeva Sh.** | O‘zbek tilida o‘xshatishlar asosida estetik bahoning ifodalanishi | **107** |
| **Mamadoliyeva M.** | Graduallik kategoriyasining lingvistik tabiati va uning turdosh hodisalar bilan munosabati (Xayriddin Sultonov va Iqbol Mirzo asarlari misolida) | **115** |
| **Mamarasulova M.** | O‘zbek tili fonosemantik tahlilining fonologik asoslari | **130** |
| **Siddiqova N.** | O‘zbek xalq maqollaridagi eskirgan leksika: tarkibi, | **132** |

| | | |
|---|---|---|
| | variantlanishi va lingvopoetik vazifalari | |
| **Yusupova A.** | Konseptlarning metaforik ifodalanishi va tahlil shakllari | **144** |
| **O‘ralova N.** | O‘zbek tilshunosligida parsellyatsiya hodisasi, uning sintaktik tavsifi va ega-kesim munosabatidagi o‘rni | **150** |
| **Maxmudova M.** | Kelishik kategoriyasining o‘rganilish tarixiga doir ayrim mulohazalar | **158** |
| **Nurmatova S.** | O‘zbek tilida rang ifodalovchi birliklarning lingvokognitiv strukturasi va konseptualizatsiya masalalari | **168** |
| **Keldiyorova Z.** | O‘zbek tilidagi shikoyat matnlarida nutqiy aktlarning ifodalanishi | **174** |
| **Aliqulova Z.** | Toponimlarning axborotni saqlash va uzatish xususiyatlari | **178** |
| **Jurayeva Sh.** | Hurmat kategoriyasining lisoniy birliklar bilan ifodalanishi | **183** |
| **Karimova U.** | Kultegin bitiktoshidagi xarakter-xususiyat bildiruvchi sifatlar tahlili | **188** |
| **II. O‘ZBEK TILINI XALQARO MAYDONDA TARG‘IB QILISH STRATEGIYALARI** | | |
| **Shamsiyeva M.** | Peyzaj matnlari orqali turizmni rivojlantirish istiqbollari | **194** |

| | | |
|---|---|---|
| **Jo‘rayeva M.** | Matnni tushunishda asar sarlavhasining ahamiyati | **201** |
| **III. GLOBALLASHUV SHAROITIDA MILLIY TIL VA MADANIYATNI SAQLASH MASALALARI** | | |
| **Ashirboyev S.** | Adstrat sharoitidagi turkiy shevalarning o‘zaro ta’siri masalasi | **205** |
| **Farhad Rahimi** | Yakşı/ ĥoş, yap/ lap, ķop/ köp/ ĥob, appaķ/ pāk kelimeleri üzerine<br>On the words yakşı/ ĥoş, yap/ lap, ķop/ köp/ ĥob, appaķ/ pāk | **210** |
| **Xakimova M.** | O‘zbek tilidagi metaforik konseptuallashtirishning milliy xususiyatlari | **232** |
| **Abbozov O.** | So‘x toponimlarining lingvomadaniy xususiyatlari | **238** |
| **Komilova G.** | O‘zbek tilida qadriyatlar tipologiyasining lingvistik verbalizatsiyasi | **245** |
| **Xomidova M.** | Zamonaviy o‘zbek badiiy matnlarida ertak elementlarining intertekstual xususiyatlari | **253** |
| **Həsənzadə Səmra** | Qrammatik metaforun türk dillərində reallaşması (özbək dilinin materiallari əsasinda) | **261** |
| **Davronova Z.** | Antroponimik freymlarda registrdan og‘ish fenomini (Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romani misolida) | **272** |

| | | |
|---|---|---|
| **Tursinbayeva Sh.** | Badiiy matnda onomastik birliklarning lingvomadaniy imkoniyatlari | **276** |
| **Bekmuradova I.** | O‘zbek tilidagi ijobiy fe’l-atvor leksemalarining semantik tasnifi | **283** |
| **Imomova I.** | Fitratning dramatik asarlarida maqollarning qo‘llanilishi va funksional-semantik xususiyatlari | **291** |
| **Turgunboeva D.** | Globallashuv sharoitida o‘zbek va ingliz lingvomadaniyatida miqdoriy me’yor | **297** |
| **Amrullayeva M.** | O‘zbek tilida inson xarakterini ifodalovchi frazemalarning semantik mikromaydonlari | **305** |
| **Abdug‘afurova A.** | Lingvomadaniy kodlarning poetik faollashuvi: Faxriyor va Ulug‘bek Hamdam she’riyati qiyosida | **312** |
| **Muzaffarova Z.** | Badiiy matnda qo‘llangan metaftonimik birliklarning kognitiv xususiyatlari | **322** |
| **Jumayeva M.** | Son komponentli lug‘aviy birliklarning lingvokulturologik tahlili | **327** |
| **Xolmo‘minova H.** | Frazemalarning lingvomadaniy tahlili | **333** |
| **IV. O‘ZBEK TILINI O‘QITISHNING ZAMONAVIY METODLARI VA XORIJIY TAJRIBA** | | |

| | | |
|---|---|---|
| **Xusanova N.** | Raqamli ta’lim muhitida o‘qish savodxonligi transformatsiyasi vositasida boshlang‘ich o‘quvchilarning kreativligini shakllantirish | **337** |
| **Mamirova X.** | Bolalarda ko‘p ma’noli so‘zlarni o‘zlashtirishning psixolingvistik mexanizmlari va til ta’limiga ta’siri | **344** |
| **Arolova N.** | Maktabgacha yoshdagi o‘zbek bolalari nutqida sintaktik tejamkorlik | **351** |
| **Mirnosirova D.** | Nutqiy ijod haqidagi nazariy qarashlar talqini | **356** |
| **Nurboboyeva R.** | Erta yoshdagi bolalar ta’limida adabiyotning tutgan o‘rni | **363** |
| **Keldiboyeva M.** | O‘zbek tili omonimlarini o‘zlashtirishda kontekst va assotsiatsiyaning psixolingvistik roli | **369** |
| **V. TARJIMA VA LINGVOMADANIY ALOQALAR: XALQARO HAMKORLIKNING MUHIM OMILI SIFATIDA** | | |
| **Mustafa Said Arslan** | Türkiye türkçesi ve özbek türkçesi arasindaki yakinliğin öğretimdeki yansimalari: özbek türkçesi öğretiminde karşilaşilan sorunlar ve öneriler | **378** |
| **Kalanova D.** | O‘.Hoshimov “Dunyoning ishlari” asarining koreyscha tarjimasida milliy-madaniy realiyalarning berilishi | **389** |

| | | |
|---|---|---|
| **Muhammadiyeva D.** | Ko‘p tilli parallel korpusning tarjima birliklarini qiyosiy o‘rganishdagi imkoniyatlari | **400** |
| **Abbasova Ş.** | Özbek Yazı Dili ve Azerbaycan Türkçesi'nin Ağızlarında Akrabalık Terimleri | **411** |
| **Qarshiyev K.** | Badiiy tarjimaning adabiy-estetik tafakkur evolyutsiyasiga ta’siri (Jamol Kamolning tarjimonlik faoliyati misolida) | **418** |
| **Rahimova Z.** | Parallel korpuslarning tarjimashunoslik va qiyosiy tilshunoslikdagi ilmiy ahamiyati | **428** |
| **Bozorova S.** | Rus tilidagi ayrim gippologik birliklar tadqiqiga doir | **433** |
| **Axmedova N.** | O‘zbek va ingliz tillarida ruhiy holat birliklarining semantik farqlari va kontekstual tarjimasi | **442** |
| **Davlatova R.** | Sun’iy intellekt asrida inson nutqi, tilni idrok etish va psixolingvistik jarayonlar | **448** |
| **Turdiyeva R.** | Ingliz, qoraqalpoq va o‘zbek tillaridagi maqollarda zoonimlarning lingvokognitiv tahlili (“bo‘ri” misolida) | **462** |
| **Ataniyazova S.** | O‘zbek va ingliz tillarida mayl, zamon va modallikning muloqot xulqidagi funksional-uslubiy imkoniyatlari | **466** |
| **Sayfiyeva K.** | O‘zbek va ingliz fitonim komponentli maqollarida inson | **472** |

| | | |
|---|---|---|
| | konseptining kognitiv metaforik modellari | |
| **Tillayeva O.** | O‘zbek va turk maqollarida erkak konseptining semantik maydoni | **485** |
| **Musurmankova Sh.,** **Abdullayeva D.** | “Ikki eshik orasi” romanidagi murojaat birliklarining lingvomadaniy xususiyatlari va tarjima muammolari | **495** |
| **Abdullayeva M.** | Ingliz va o‘zbek maqollarida nutqiy antonimiyaning lingvokognitiv xususiyatlari | **502** |
| **VI. AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA RAQAMLI MUHITDA O‘ZBEK TILINING RIVOJI** | | |
| **Abjalova M.** | O‘zbek tili multikorpusida aksentologik korpus va uning ahamiyati | **513** |
| **Elova D.** | O‘zbek normativ-huquqiy matnlarini lingvo-mantiqiy annotatsiyalash mezonlari | **524** |
| **Kasimova Z.** | O‘zbek tili iboralar korpusini yaratishning lingvistik va kompyuter asoslari | **534** |
| **Nurullayeva O.** | Barqaror birikmalar resurslari va parallel korpus uchun baza tuzish mezonlari | **542** |
| **Musulmonova K.** | Lingvistik ekspertologiyada matn identifikatsiyasi bo’yicha ekspert xulosalarini shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari | **550** |

| | | |
|---|---|---|
| **Umarova Sh.** | Kollokatsiyalarni korpus asosida aniqlashning nazariy va metodologik asoslari | **556** |
| **Akramdjanova M.** | Parallel korpusning madaniyatlararo kommunikatsiyadagi o‘rni | **564** |
| **Buronova R.** | Raqamli muhitda o‘zbek tilidagi neologizmlarning shakllanishi | **570** |
| **Shodmonaliyeva Y.** | Sentiment tahlilda tasdiq-inkor emojlarining diskursiv va pragmatik funksiyalari | **576** |
| **Rayimjonova M.** | Rauf Parfi she’riyatining leksik-statistik xususiyatlari | **591** |
| **VII. XALQARO TA’LIM DASTURLARI VA O‘ZBEK TILI: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLAR** | | |
| **Mirzəli Məleykə** | Azərbaycanda özbək dilinin tədrisi: təcrübə və perspektivlər (bakı slavyan universitetinin timsalında) | **595** |
| **Iskandarova G.** | O‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘rganishda so‘z ma’nolarini o‘zlashtirish | **603** |
| **VIII. O‘ZBEK TILI VA DIPLOMATIYA: XALQARO MUNOSABATLARDA TILNING O‘RNI** | | |
| **Темирова Б.,**<br>**Темирова М.** | Кыргыз, өзбек тилдери жана алардын адабий-маданий байланыштардагы ролу | **610** |

| | | |
|---|---|---|
| **Nazarov Q.** | O‘zbek diplomatik diskursida metaforalarning kommunikativ-pragmatik xususiyatlari | **620** |
| **IX. ILMIY TADQIQOTLAR VA LINGVISTIKADA XALQARO HAMKORLIK MASALALARI** | | |
| **Berdak Yusuf** | O‘zbek tilining shakllanish jarayoni va eski o‘zbek tili terminlari | **626** |
| **Qurbonova M.** | Xarizmatik nutq haqidagi nazariy qarashlar talqini | **632** |
| **Umurzoqova M.** | Erkin A’zam asarlarida lisoniy shaxs tiplari | **640** |
| **Mirzaali Malika** | O‘zbek tılının mavsumıy marosımlar leksıkasıda turkıy areal mavqeyı | **646** |
| **Məmmədova A.** | Xarəzm Türkcəsində Və Müasir Özbək Dilində Qohumluq Terminlərində Cins Kateqoriyasinin İfadəsi | **661** |
| **Tuxtasinova M.** | L.Z.Budagov lug‘atidagi umumturkiy leksik fond: “tur.” pometali leksemalarning tarixiy-qiyosiy tahlili | **670** |
| **Abdullayeva S.** | So‘z yasalishını qıyosıy-tıpologık tadqıq etısh metodologıyası va tahlıl mezonları | **681** |
| **Xasanova G.** | Kinesikaning lingvistik tadqiqi: shakllanish tarixi va kommunikativ funksiyalari | **688** |

| | | |
|---|---|---|
| **Rajabov N.** | O‘zbek tilida ng fonemasining talaffuzi, imlosi va tarixiy taraqqiyoti | **695** |
| **Mirzayeva G.** | O‘zbek tilida tovush o‘zgarishlarining neyrolingvistik asoslari | **699** |
| **Arislanova M.** | She’riy matnning konseptual tizimi va lingvokognitiv xususiyatlari (Erkin Vohidov ijodi misolida) | **706** |
| **Muhammadiyeva M.** | “Shum Bola” qissasidagi ba’zi polisemantik leksemalar tahlili | **717** |
| **Abdullayev G‘.** | Fitrat she’riyatidagi turkiy so‘zlarning emotsional-ekspressiv xususiyatlari | **722** |
| **Tursunova S.** | Ironiyada implikatura fenomeni va yashirin ma’no mexanizmlari | **726** |
| **Turobova N.** | Badiiy diskursda morfologik vositalarning pragmatik xususiyatlari | **737** |
| **Utegenova O‘.** | O‘zbek tilida tasviriy ifodalarning badiiy matnda qo‘llanilishi | **744** |
| **Komilova G.** | Tarixiy-badiiy matnlar korpuslarini yaratish zarurati va ularni semantik modellashtirish masalalari | **749** |
| **Haydaraliyeva Sh., Mo‘minova M.** | O‘zbek tili leksikasining taraqqiyot tamoyillari va semema tushunchasi | **759** |

| | | |
|---|---|---|
| **Axmedova M.** | Diskurs tushunchasining lingvistik talqini: nazariy yondashuv va ilmiy qarashlar | **768** |
| **Komilova Sh.** | Lingvokultrologiyada evfemizm va milliy mentalitet: ayollar nutqi misolida nazariy talqinlar | **774** |
| **Suyunova D.** | “Boburnoma” dagi leksik qatlamlarning “Boburiynoma”da badiiy qayta faollashuvi: leksik-semantik va funksional-uslubiy tahlil | **780** |
| **Maqsudaliyeva Y.** | Lingvistik ekspertiza va lingvokriminalistik tahlil: nazariya va amaliyot | **786** |
| **Abdurasulova D.** | O‘zbek qizlari nutqidagi neonim va slenglarning pragmalingvistik tadqiqi | **792** |
| **Majidova M.** | Tibbiy soha rahbarlari kinesik nutqining lingvosomatik tadqiqi | **797** |
| **Abdullayeva I.** | Gender qadriyatlarning aksiolingvistik tahlili | **802** |
| **X. O‘ZBEK TILINING OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI VA MEDIA MAKONIDAGI O‘RNI** | | |
| **Saydaliyeva M.** | Kinodiskurs multimediali muloqot tizimi sifatida | **809** |
| **Otaxonova S.** | Mediamatnlarda antroponimlarning pragmatik imkoniyatlari | **813** |